

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna ИККИНЧИ ЈАҲОН УРУШИ YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Palvanov H.A.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası o'qituvchisi

O'zbekiston Milliy universiteti

Hikmatjonpalvanov@mail.com

XORAZM VOHASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR

ANNOTATSIYA

Bu maqolada Qadimgi Xorazm vohasining metall hunarmandchiligining ayrim xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilib, quyi Amudaryo vohasining antik davridagi hunarmandchilikning taraqqiyotida metall buyumlarga ishlov berish, turlari va xususiyatlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Geradot, Dingilja, B.A. Litvinskiy, Akinak, Burgutqal'a, Qo'hna-Uaz, Kaparas, Shamshir, I.V. Pyankov, Sovut plastinalari, Chirik Rabot, Sagaris.

KIRISH

Yunon tarixchisi Geradot massaget qavmlari to'g'risida "Ularning barcha buyumlari, asbob-anjomlari oltindan va misdan ishlangan. Nayzalari, kamon paykonlari, harbiy boltalari misdan, bosh kiyimlari, kamarlari oltin bilan bezatilgan. Otlarning ustidagi bargustvoni ham misdan to'qilgan. Ular temir va kumushdan umuman foydalanmaydi. Sababi ularning yurtida bu metallar yo'q, oltin va mis esa, juda ko'p" deb ma'lumotlar berib o'tgan [1, B. 10]. Shuningdek, yunon tarixchisi va geografi Strabon (miloddan avvalgi I asr oxiri) "ularda kumush umuman yo'q, temir ozchilik, mis va oltin serob" deb yozadi [2, B. 11]. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Xorazmda rangli metall buyumlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham, o'sha davrda temir qurollar xalq xo'jaligida kam ishlatilganligidan darak beradi. Lekin antik davrda Xorazm vohasida temir buyumlaridan keng foydalanilgan, buni yodgorliklardan topilgan moddiy ashyolar ham tasdiqlaydi. S.P. Tolstovning tadqiqotlarida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Dehqonchilikda ishlatilgan temir buyumlar, ayniqsa **o'roqlar** qishloq xo'jaligida turli boshqoli ekinlar, beda, pichan va o'tlarni o'rishda, ekinlarni begona o'tlardan tozalashda ishlatilgan. Xorazmda dastlabki temir o'roqlar Ko'zaliqir (miloddan avvalgi VI-V asr) va Dingilja (miloddan avvalgi V asr) yodgorliklaridan topilgan [3, C. 99-100]. Ushbu o'roqlar uch qismdan tig', bo'yin va dastadan iborat bo'lgan. Demak bu temir o'roqlar antik davriga kelib yanada kengroq yoyilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Bunday o'roqlar mehnat jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam bergan. Bu esa qadimdan shakllangan dehqonchilik qurollarining mahalliy sharoitlarga moslashganligini va qo'l mehnati jarayonida o'zgarib, rivojlanib borganligini ko'rsatadi.

B.A. Litvinskiy ta'kidlashicha, O'rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan zo'g'otali temir **boltalar** ishlab chiqarilgan [4, B. 29-30].

Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga oid Dingilja yodgorligidan topilgan temir **arra** qoldiqlari Xorazm temirchilik hunarmandchiligida qadimdan arralar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini bildiradi [5, B. 156-158]. Mahalliy temirchilar tomonidan bu an'ana XX asr boshiga qadar davom etgan va xilma-xil shakllardagi arralar tayyorlangan [6, B. 93]. Natijada yog'ochlarga ishlov berilib turli shakllarga keltirilgan. Balki bu arralarning topilishi hunarmandchilik tarmog'ining duradgorlik turi paydo bo'lib shakllana boshlaganligini bildirar.

Xorazm **pichog**larning tig'i temirdan, dastasi yog'och yoki suyakdan yasalgan bo'lib, antik davrga oid yodgorliklardan topib o'rganilgan [7, B.158-159].

Xorazmliklarning harbiy salohiyati va san'ati, qurol-aslahalari to'g'risidagi ma'lumotlar yozma manbalar, ba'zi arxeologik topilmalardagi tasvirlarda aks ettirilgan. Ahomoniylarning Persopol shahri Apadana tokchasidagi bo'rtirma sur'atda o'lpon to'lovchilar qatorida xorazmliklar ot yonida kalta qilich (aqinak) bilan qurollangan holda tasvirlangan. Bu esa vohada qadimdan otlardan jangovar maqsadlarda va transport vositasi sifatida foydalanilganligini ko'rsatadi. Qadimgi va antik davr yodgorliklari Qo'yqirilganqal'adagi xumda nayza ko'targan, Xumbuztepadagi sopolda esa zirhli suvoriy tasvirlangan [8, B.203].

Ko'zaliqir (miloddan avvalgi VI-V asrlar) Burgutqal'adagi Amirobod madaniyati makonlari (miloddan avvalgi II asr) yodgorliklaridan bronzadan yasalgan **ot-ulov anjomi** ya'ni suvliq qolipi topib o'rganilgan [9, B.34-36]. Bu esa Xorazmda so'nggi bronza davridan ot-ulov anjomlarini tayyorlash yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. O'rganilayotgan davrga kelib esa ot-ulov anjomlarini tayyorlash ancha takomillashib rivojlanib borgan.

Kamonning qadimgi ikki xili mavjud bo'lib oddiy kamon va murakkab kamondan tashkil topgan. Oddiy kamon yarim doira shaklida, murakkab kamon esa yoyilgan qo'sh qanot shaklida ishlangan. Murakkab kamon O'rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillikdan ma'lum [10, 419 b]. Xorazmda murakkab kamonlarning takomillashuvi taxminan miloddan avvalgi I asr oxiri milodiy I asrda temir sovutlarning keng tarqalishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xorazmda antik davrdanoq murakkab kamonlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bu davrga oid Tuproqqal'a saroyidan murakkab kamon tayyorlovchi ustaxona topilgan [11, B.216-219]. Shuningdek, antik davrdagi Qo'yqirilganqal'a, Qo'hna-Uaz, Kaparas yodgorliklarida ham kiyik suyaklaridan tayyorlangan yarim tayyor kamon qoplamalari aniqlangan.

Tarixchilar fikricha, Yevrosiyo dashtlarida va Markaziy Osiyoda milodiy I asrdan gunn tipidagi murakkab kamonning suyak nakladkalari tarqalgan va mo'g'illar bosqiniga qadar foydalanilgan [12, B.29-45].

Yozma va arxeologik manbalar Xorazmda murakkab kamonlar keng ko'lamda ishlab chiqarilganidan va asosiy harbiy qurollardan biri sifatida foydalanilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Xorazm o'rta asrlarda Sharqdagi sifatli murakkab kamon ishlab chiqaruvchi markaz sifatida e'tirof etilgan [13, B.202-243]. Antik davrda shakllangan murakkab kamonlarning takomillashuvi o'rta asrlarga kelib ancha taraqqiy etganini ko'rish mumkin.

Xorazm yodgorliklarida topilgan **kamon o'qi** uchlaridan uch parakli o'qlar Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'aning quyi madaniy qatlamlari, qo'shni hududdagi Chirik-Rabot majmuasi miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid qatlamlaridan topilgan [14, B.135-137]. Tuproqqal'adagi antik davrga oid o'q uchining uzunligi 9 sm, tig'i 6 sm, dastasi 3 sm, tig'i eniga 2,2 sm ga teng bo'lgan. Bunday o'q uchlari Quyi Volga bo'yi va Janubiy Ural hududlaridagi miloddan avvalgi IV asr oxiri III asr boshlariga oid yodgorliklarida ham uchraydi. Umuman shu davrlardan O'rta Osiyo yodgorliklarida ham ma'lum [15, B. 67-68]. D. Marshall o'sha shakldagi o'q uchlarining Hindistonda tarqalishini sak qabilalariga aloqador va miloddan avvalgi I asrga oid deb hisoblaydi. A.M.Xazanov fikricha, ushbu shakl O'rta Osiyo va Qozog'istonda miloddan avvalgi III-I asrlarda paydo bo'lgan va miloddan avvalgi I asrdan keng tarqalganligi aytib o'tilgan.

Temir yetishmagan paytlarda suyak kamon o'qi uchlaridan ham ba'zida foydalanilgan. Bunday suyakdan yasalgan o'q uchlari Xorazmning ko'chmanchilariga oid yodgorliklarida qayd etilgan [16, B. 154-155].

Nayzalar piyoda jangchilar va suvoriylarning dushmanga yaqin masofadan zarba beruvchi jangovar qurollardan biridir. Tozabog'yop madaniyati (miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari) Jonbos 21 makonidan topilgan nayza tig'ining toshdan yasalgan qolipi Xorazmda nayzalarining qadimdan tayyorlanishi va asosiy jangovar qurollardan biri sifatida keng foydalanganligidan dalolat beradi [17, B.131-132].

B.A. Litvinskiy, I.V. Pyankovlar ta'kidlashicha, massagetlarda nayza miloddan avvalgi VI asrda keng tarqalgan, hattoki ularda nayzabardorlar deb ataluvchi maxsus qism ham mavjud bo'lgan [18, B. 40-41]. Shuningdek, Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a, Xumbuztepa yodgorliklaridan topilgan sopol idishlar relefidagi nayza o'qtalib borayotgan suvoriy tasvirlari Xorazmda miloddan avvalgi IV-II asrlardayoq uzun nayzalar suvoriylarning asosiy harbiy qurollaridan biri bo'lganligidan guvohlik beradi [19, B. 99-101]. Tuproqqal'aning III-IV asrlar madaniy qatlamlaridan topilgan temir nayza tig'i to'rt qirrali shaklda bo'lib, uzunligi 22 sm, kesimi hajmi 2,8 x 2,8 sm, dastasi saqlanmagan [20, B. 222-223]. Panjikent yodgorligidan topilgan topilmalar bunday nayza tig'laridan O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda ham foydalanish davom etganligini ko'rsatadi [21, B.74-75]. O'rta asrlarda ham nayzalardan asosiy jang qurollaridan biri sifatida foydalanilgan. Bu haqda ilk o'rta asrlarga oid Xorazm tangalaridagi nayza ko'targan suvoriy tasvirlari va arxeologik materiallar dalolat beradi [22, B. 42-44].

Shamshir yaqin masofadagi jangda chopish yoki sanchish orqali dushmanni jarohatlaydigan tig'li qurol. Arxeologik materiallardagi dastlabki shamshirlar xanjar shaklida kalta bo'lganligini ko'rsatadi. Eronning Suzadagi saroy qurilishi haqida Doro I yozuvida xorazmliklar kalta shamshir (akinak) va oy bolta (sagaris) bilan qurollangan, ot yetaklagan holda tasvirlangan. Shuningdek, Xorazmga qo'shni sak qabilalari qo'rg'oni Chirikrabot yodgorligidan topilgan shamshir uzunligi 80 smga teng [23, B.149-150.]. Ustyurtdagi sarmatlar davri qo'rg'onidan topilgan shamshir uzunligi esa 106 smga teng [24, B.154-155]. Milodiy I-III asrlarga kelib Xorazmda kalta akinaklar o'rniga uzun og'ir shamshirlar keng tarqalgan. Buni biz Tuproqqal'a saroyi "Podshohlar zali" dagi jangchi shaklidagi

sopol haykalchalar misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Akinaklarning uzun shamshirlarga aylanib borishi metall hunarmandchiligining taraqqiy etganligini bildiradi.

Himoya qurollaridan **sovutlar** asosan uch turga ajraladi: plastinali, tangali va lamelliya. Arxeologik manbalar Xorazmda qadimdan plastinali va tangali sovutlardan foydalanganliklarini ko'rsatadi. Voha yodgorliklaridagi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid sopol idishlardagi suvoriy va uning oti plastinali sovutlarda himoyalangan qiyofada tasvirlangan. Sovut plastinalari suvoriyni qo'l va oyoq tizzalariga qadar himoya qilgan. Xorazmdagi qo'shni ko'chmanchilar yodgorligi Chirik Rabotning miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid qatlamlaridan suvoriy va uning oti uchun tayyorlangan sovut plastinalari topilgan [25, B.157]. Xorazmda metall plastinali sovutlar I asrdan, ayniqsa og'ir qurollangan otliq qo'shinning ahamiyati kuchaygan davrda keng tarqalgan. Sovutlarning temir plastinalari III asrlar Tuproqqal'a saroyi majmuasi va Ko'hna-Uaz qal'asi yodgorliklaridan ham topib o'rganilgan [26, B.222-224]. Tuproqqal'a yodgorligidagi 8 xonadan topilgan jangchi xaykalchasi xorazmliklar antik davrdayoq tangali sovutlardan foydalanganligini ko'rsatadi.

Demak, xorazmliklar qurol-aslahalarni rivojlantirish yo'lida bir necha bosqichlardan o'tishgan. Ular kamon, kamon o'qi uchlari, shamshir, nayza, xanjar, sovut kabi jang va himoya qurollaridan qadimdan foydalanib kelishgan. Manbalarda voha xalqlari qo'rqmas, botir, dovyurak, mohir jangchi sifatida tilga olingani ma'lum.

Xorazm arxeologik materiallaridagi xilma-xil mis, bronza buyumlar misgarlik hunarmandchiligining rivojlanishini, mahsulot ishlab chiqarish darajasining oshganligini va aholining madaniy taraqqiyotini ko'rsatadi. Misgarlik mahsulotlari nafaqat, amaliy ahamiyatga ega buyum, balki voha xalqlarining nodir san'at asari hisoblanadi. Xorazmning antik va o'rta asrlar davri misgarlari tomonidan har-xil assortimentdagi xo'jalik va ro'zg'or buyumlari tayyorlangan. Xorazmda dastlabki mis va bronza qoshiqlar antik davrga oid Tuproqqal'a (III-IV asrlar, 3 dona), Ko'hna-Uaz (1 dona), Mizdaqxon maqbarasi (III-IV asrlar) yodgorliklaridan topilgan. Mazkur qoshiqlarning rezervuar (qoshiqning suyuqlik turadigan joyi) qismi unchalik chuqur emas, tuxumsimon shaklda, so'qma usulda yasalgan.

Ba'zi mutaxassislar ta'kidlashicha, metall qoshiqlar uy-ro'zg'orda emas, balki hunarmandchilik va diniy marosimlarda qo'llanilgan [27, B.165-166]. Buni Varaxsha va Panjikent yodgorliklaridagi ilk o'rta asr devoriy tasvirlarida olov bilan bog'liq marosimlarda metall qoshiqlar ishlatilganini ko'rish mumkin [28, B.244]. Umuman olganda metall qoshiqlar Xorazm vohasida islom dini tarqagunga qadar dastlab diniy marosimlarda va hunarmandchilik bilan bog'liq ishlarda foydalangan bo'lsa, keyinchalik zodagon va amaldorlar uylarida foydalanila boshlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Xorazm vohasida miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha davom etgan antik davrda Amudaryoning quyi oqimida boshqa sohalar kabi metall hunarmandchiligi ham rivojlanib borgan. Ayniqsa buni vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik

va chorvachilikda metall buyumlarga bo'lgan talab katta bo'lgan. Chunki bunday buyumlar dehqon va chorvadorlarning og'irini yengil qilib kundalik ishlarida qo'l kelgan. Bu davrga oid temir buyumlardan o'roq, pichoq, arra, shamshir, bolta, otulov anjomi, qoshiq, sovut va nayza va kamon o'qi uchlari topib o'rganilgan. Ayniqsa harbiy maqsadda ishlatilgan metall sovutlar o'ziga xosligi bilan ajralib turgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Древние авторы о Средней Азии.-Ташкент, 1940. С.21-22; Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана.-Ташкент: АН УзССР, 1953. С.10.
2. Ўша жойда С.11.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта.-М.: 1962. С.99-100; Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба середины I тысячелетия до н.э.в Древнем Хорезме.-М.: 1973. Рис. I.3,8,9; 45, 2, 4-7.
4. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы.-М.: 1978. С.29-30.
5. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба I тысячелетия до н.э.в древнем Хорезме. -М.: 1973. С.156-158
6. Джабборов И.М. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX-начале XX. С.93.
7. Койкрылган-кала памятник культуры древнего Хорезма. С-158-159
8. Ўша жойда 203 б.
9. Сабурова М.А. Литейная форма из Хорезма // СА-М.: 1964.-№1. С.304-308. Тереножкин А.И. Бронзовый псалий с городища Кюзели-Гыра в Хорезма // КСИЭ. Самарканд., 1958. №XXX. С.34-36.
10. Ўзбекистон Республикаси Миллий энциклопедияси.-Тошкент: 2002. 419 б.
11. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР (1945-1948гг.) // ТХАЭЭ.-М.: Т.І. С.32-35. Топрак кала. Дворец. С.216-219.
12. Хазанов А.М. Сложные луки Евразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана.-М.: 1966. С.29-45; Кызласов Л.Р. История Тувы в средние века.-М.: изд-во МГУ, 1969. С.76-77.
13. МИТТ.Т. І. С.202; Толстов С.П. Древний Хорезм. С.244; Толстов С.П. По следам древне Хорезмийской цивилизации... С.242-243
14. Койкрылган-кала памятник культуры древнего Хорезма. (IV в.до н.э.- IV в.н.э.) // ТХАЭЭ.-М.: 1967. Т.V. С.135-137.
15. Обезченко О.В. Агалыксайские курганы // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). -Ташкент. 1972. Вып.9. С.67-68.
16. Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта... С.154-155.
17. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья (II начало I тысячелетия до н.э.). -М.: Наука, 1977. С.131-132.

18. Литвинский Б.А., Пяньков И.В. Военное дело у народов Средней Азии в VI-IV вв. до н.э. // Вестник Древней истории.-М.: 1966. №3. С.40-41
19. Толстов С.П. Древний Хорезм.-М.: 1948. С.219; Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм Мудофаа иншоотлари.-Тошкент, 2007. 99-101 б.
20. Рапопорт Ю.А., Е.Е. Неразик. Топрак-кала. Дворец. М., Наука, 1984. С.222-223.
21. Распопова В.И. Металлические изделия раннесредневекового Согда.-Ленинград., 1980. С.74-75
22. Ваинберг Б.И. Монеты древнего Хорезма.-М.: Наука, 1977. С.42-44
23. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта.-М.: 1962. С.149-150.
24. Ягодин В.Н. Сарматский курган на Устюрте // Краткие сообщения Института археологии АН СССР (КСИА).-М.: 1978. С.154-155.
25. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта.-М.: 1962. Рис.82 а,б. С.157.
26. Рапопорт Ю.А., Е.Е. Неразик. Топрак-кала. Дворец. М., Наука, 1984. С.222-224.
27. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях левобережного Хорезма // МХЭ.-М.: 1963.-вып.7. С-60; Вактурская Н.Н. и Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов. С.165-166
28. Жиповись древнего Пенджикента: Сб. Статей.-М.: 1954.-табл. VII; Шишкин В.А. Варахша.-М.: 1963.-табл. XIV. С.244

Палванов Х.А.

Преподаватель кафедры «Археологии и этнологии»

Национальный университет Узбекистана

Hikmatjonpalvanov@mail.com

ЗАМЕЧАНИЕ О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ МЕТАЛЛИЧЕСКОГО РЕМЕСЛЕННОСТВА АНТИЧНОГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются некоторые особенности металлоремесленничества Древнего Хорезмского оазиса, а также обработки металлических изделий, их виды и особенности в развитии ремесленничества в античный период в низовьях Амударьи.

Ключевые слова: Герадот, Дингильжа, Б.А. Литвинский, Акинак, Бургуткала, Кухна-Уаз, Капарас, Шамшир, И.В. Пьянков, Пластины панцирей, Чирик-Рабат, Сагарис.

Palvanov H.A.

Lecturer at the department of «Archaeology and Ethnology»

National University of Uzbekistan

Hikmatjonpalvanov@mail.com

NOTE ON SOME FEATURES OF METAL CRAFTS IN THE ANCIENT PERIOD OF THE KHOREZM OASIS

ABSTRACT

This article discusses certain features of metal craftsmanship in the Ancient Khorezm oasis and examines the processing, types, and characteristics of metal products in the development of craftsmanship in the ancient period of the lower Amu Darya oasis.

Key words: Geradot, Dingilzha, B.A. Litvinsky, Akinak, Burgut-Kala, Kuhna-Uaz, Kaparas, Shamshir, I.V. Pyankov, Coat of Arms Plates, Chirik Rabat, Sagaris.